

---

## Xotin-qizlarning doimiy daromadga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida ularga tikuv mashinalari topshirildi

Farg'ona shahrida fuqarolarning doimiy ish bilan band, daromad manbaiga ega bo'lishlari uchun amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois ham uyda oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamg'armalar mablag'lari hisobidan mehnat quollari ajratilmoqda.

Bugun "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig'inida shahrimizda yashovchi 25 nafar xotin-qizlarga tikuv mashinalari, bir nafariga esa xamir qorish uskunasi topshirildi. Mazkur tadbirda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov ishtirok etib, mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor, ularning doimiy ish bilan band bo'lishlari uchun amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi.

Xotin-qizlar berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik uchun Prezidentimiz hamda mas'ullarga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-27 00:04:07